



## **FAZO VA VAQT – BORLIQNING TUZILISHI SIFATIDA**

*To'lanboyeva Maftunabonu Sanjarbek qizi*

*Namangan davlat universiteti Fizika-  
matematika fakulteti 2-bosqich talabasi*

*[maftunabonutolanboyeva@gmail.com](mailto:maftunabonutolanboyeva@gmail.com)*

*Ilmiy rahbar: Mirzaxolov Nodirbek Tojiboyevich*

*Namangan davlat universiteti Ijtimoiy*

*fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi*

*[nodirbek\\_mustofa@gmail.ru](mailto:nodirbek_mustofa@gmail.ru)*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada falsafaning bo'limlaridan biri borliq (ontologiya) haqida ma'lumot berilgan. Asosan maqolada borliqning tuzilishi: harakat, fazo va vaqt haqida berilgan. Fizikada borliqning tuzilishi qanday ahamiyatga ega ekanligi ham aytib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar.** Falsafa, borliq, ontologiya, atribiut, harakat, fazo, vaqt, relyatsion va substantsion yondashuvlar.*

## **ПРОСТРАНСТВО И ВРЕМЯ КАК СТРУКТУРА БЫТИЯ**

***Аннотация.** В этой статье представлена информация об одной из разделов философии, который посвящен бытию. В основном, в статье обсуждается структура бытия, а также движение, пространство и время. Также упоминается значение структуры бытия в физике.*

***Ключевые слова.** Философия, бытие, онтология, атрибут, движение, время, пространство, реляционные и субстанциальные подходы.*



## SPACE AND TIME AS THE STRUCTURE OF EXISTENCE


*Annotation.* This article provides information about one of the branches of philosophy concerning existence. Mainly, the article primarily discusses the structure of existence in relation to movement, space and time. It also mentions the significance of the structures of existence in physics.

*Keywords.* Philosophy, existence, ontology, attribute, movement, space, time, relational and substantial approaches.

“Falsafa” tushunchasi yunoncha, “phileo” – sevaman, “sophia” – donolik so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “donolikka muhabbat” degan ma’noni anglatadi. “Falsafa” so’zini qadimgi yunon mutafakkari Pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an’analar orqali) avloddan avlodga o’tuvchi bilimni inson o’z aqliga tayanib, mushohada yuritish va tanqidiy fikrlash yo’li orqali olish mumkin bo’lgan bilimdan farqlash maqsadida ishlatilgan [1].

Falsafa fanining borliq haqidagi masalalarni o’rganuvchi bo’limi *ontologiya* deb ataladi. “Ontologiya” so’zi yunoncha “ontos” – mavjudlik, “logos” – fan, ta’limot so’zaridan olingan bo’lib, “mavjudlik haqidagi ta’limot”, ya’ni borliq haqidagi fan degan ma’nosini ifodalaydi. Borliq – u o’ziga ob’yektiv va sub’yektiv reallikni, mavjud bo’lgan va mavjud bo’ladigan olamlarni, moddiylik va ma’naviylikni, o’tmish va kelajakni, o’limni va hayotni, rux vajismni qamrab oladi.

Atribiut – muayyan jismning aynan shu jism ekanligini belgilovchi xususiyatlari. Menimcha, atribiut so’zini “xossa” so’zi bilan sinonim qilib almashtirish mumkin. Borliq atribiutlari esa, uning ajralmas tub xususiyatlari tushuniladi, ya’ni borliq o’zining xossalari bilan namoyon bo’ladi. Borliq atribiutlari: harakat, fazo va vaqtdan iborat.



Borliqning mavjudligi undagi o'zgarishlar bilan sodir bo'ladi. Agar o'zgarish bo'lmasa, borliqning bor yoki yo'qligi noma'lumligicha qoladi. Har qanday o'zgarish – harakatdir. O'zgarishlar faqat moddiy ob'ektlarga emas, balki ma'naviy, g'oyaviy ob'ektlarga ham tegishlidir. Moddiy yoki g'oyaviy ob'ektning mavjudligi undagi harakat va o'zgarishlar tufayli sodir bo'ladi. Shu sababli *harakat borliqning asosiy mavjudlik usuli* hisoblanadi. Falsafiy adabiyotlarda moddiy borliqni 5 ta harakat shakliga ajratib ko'rishgan:

1. Mexanik harakat – moddiy harakatning eng sodda shakli hisoblanadi. Bu harakatga biz fizika darslarida quyidagicha ta'rif beramiz: "Vaqt o'tishi bilan jismning boshqa jismlarga nisbatan vaziyatining o'zgartirishi *mexanik harakat* deyiladi".



2. Fizik harakat –elementar zarrachalar, atom yadrosi va atomning harakatidan boshlanib, olamning tortishish kuchlari, issiqlik, elektr va maydon harakatigacha, yorug'likdan boshlanib, koinotning gravitatsiya kuchigacha bo'lgan barchasi shu harakat shakliga kiradi.

3. Kimyoviy harakat – bunga molekularning assotsiatsiyasi va dissotsiatsiyasi, ionlar harakati, moddaning muzlashi va kristallanish jarayonlari, kimyoviy reaksiyalar, kimyoviy sintez va parchalanish, yonish va oksidlanish va boshqa kimyoviy jarayonlar kiradi.

4. Biologik harakat – qisqa qilib aytganda, hayotiy jarayonlar bo'lib, tirik mavjudotning yashash tarzi hisoblanadi.

5. Ijtimoiy (sotsial) harakat – jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning namoyon bo'lishi hisoblanadi.

Fazo – vaqtning muayyan lahzasida bu dunyoni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini ifolaydi. Vaqt esa fazoning har bir nuqtasida ro'y beruvchi hodisalarning ketma-ketligi, davomiyligi tartibini ifodalaydi. Biz bu ikki tushunchani fizikada quyidagicha ta'riflaymiz:

Fazoning asosiy xossalari: haqiqatan ham mavjudligi, materiya bilan ajalmasligi ya'ni, olamda fao bilan bog'lanmagan bitta ham ob'yekt yo'q, cheksizligi, uch o'lchamligi (barcha fizik ob'yektlaning bo'yi, eni, balandligi mavjuddir).

Vaqt asosiy xossalari esa, mavjudligi, hamma onlari bir hil, faqat oldinga harakatlanadi, bir o'lchamlik hisoblanadi.

Fazo va vaqt – borliqning umumiy yashash shakllari bo'lib, fazo dunyoni tashkil etuvchi ob'yektlar va ularning tarkibiy nuqtalarining o'zaro joylashish tartibini ifoda etadi, vaqt esa bu dunyoda sodir bo'luvchi hodisa va jarayonlarning



ro'y berish ketma-ketlik tartibi va davomiyligini ifodalaydi. Fazo va vaqtning mohiyati haqida qadimdan faylasuflar hilma-hil nuqtai nazarni ilgari surgan. Ularni umumlashtirib 2 ga: substantsial va relyatsion konsepsiyaga ajratish mumkin. Substantsial konsepsiyada fazo va vaqtning mutlaq jihatlari, relyatsion konsepsiyada esa ularning nisbiy jihatlari mutlaqlashtirilgan. Substantsial yondashuv tarafdorlari (Demokrit, Platon, Zakariyo, Ar-Roziy, Beruniy, Nyuton, Eyler) ning fikricha, fazo – materiya va moddiy aloqadorlikdan tashqarida, bularga bog'liq emas holda mavjud bo'lgan mustaqil substantsiyadir. Fazo moddiy ob'yektlarning joylashish makoni, fazo mutlaqdir. Vaqt esa borliqqa, fazo va harakatga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Fazo va vaqtning mustaqil substantsiya deb hisoblaganliklari uchun ularning yondashuvi fanga substantsial konsepsdiya nomi bilan kirgan. Relyatsion yondashuv vakillari (Aristotel, Avgustin, Ibn Sino, Faxriddin Roziy, Dekart, Leybnist) ning fikricha, fazo – moddiy dunyoning tarkibiy tuzilishi tartibining namoyon bo'lishi, jismlarning o'zaro joylashish o'rni va moddiy narsalarning mavjudligi tartibini ifodalaydi. Fazo juz'iy holda ham, umumiy holda ham moddiy dunyoning holatiga bog'liq. Materiya fazoning mavjudligi uchun asosiy vositadir, vaqt esa materiyaning atributi (ajralmas xususiyati), u materiyadan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emas, u nisbiydir. Fazo va vaqt haqidagi tasavvurlarini yanada oshirish maqsadida ko'plab tadqiqotlar olib borishdi. Bu tadqiqotlar olamdagi yagona eng umumiy, universal va fundamental aloqadorlik – fazo va vaqt aloqadorligidir, deb xulosaga kelishgan [2].

**Xulosa.** Falsafada fizika falsafasi zamonaviy fizikaning kontseptual va izohli masalalari bilan shug'ullanadi, ularning aksariyati nazariy fiziklarning ayrim turlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bir-biriga mos keladi. Fizika falsafasini umumiy ma'noda uch yo'nalishga bo'lib o'rganishadi, bulardan biri biz yuqorida aytib o'tganimiz fazo va vaqtning tabiatidir.



### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti. Falsafa (o'quv qo'llanma). Toshkent-2019.
2. M.A. Ahmedova, D.A. Alimova, X.A. Aliqulov, R.R. Nazarov. Falsafa. Toshkent-2006.
3. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi I. Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti. Falsafa ensiklopedik lug'at. Toshkent-2010.
4. J. Tulenov, G. Tulenova, K. Tulenova. Falsafa. Toshkent-2016.
5. Z. Davronov, N. Shermuhammedova, D. Fayzixo'jayeva, M. Nurmatova, B. Husanov, M. Qahhorova, A. Sultonova. Falsafa (I qism). Toshkent-2019.